

2025-yil 29-iyul

“O‘zkimyosanoat” AJ va Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti o‘rtasida hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi



“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining Innovatsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘limi vakillari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti bilan hamkorlik masalalari yuzasidan bevosita uchrashuv o‘tkazdilar.

Uchrashuv davomida institutning ilmiy-tadqiqot va laboratoriya salohiyati chuqur o‘rganildi hamda uning amalga oshirayotgan ilmiy faoliyati bilan yaqindan tanishildi.



Uchrashuvning asosiy maqsadi - ikki tomonlama manfaatli hamkorlik yo'nalishlarini aniqlash va yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha rejalarni ishlab chiqishdan iborat. "O'z kimyosanoat" AJning innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish sohasidagi tajribasi hamda Mikrobiologiya institutining ilmiy salohiyati ushbu hamkorlikka qo'shimcha imkon beradi.

Tomonlar kelajakda birgalikda amalga oshiriladigan loyihalar orqali sanoat va ilmiy sohalarda samarali natijalarga erishishga kelishib oldilar. Bu hamkorlik nafaqat ikki muassasaning rivojlanishiga, balki umumiy milliy iqtisodiyot va ilmiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.



“O‘zkimyosanoat” AJ va Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti o‘rtasidagi bu hamkorlik, innovatsiyalar va ilm-fanni amaliy ishlab chiqarishga integratsiya qilish borasida yangi bosqichni ochmoqda.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-fanlar-akademiyasi-mikrobiologiya-insti>